

SUT BEZI SARATONIDA RADIOLOGIK TASVIR XUSUSIYATLARNI QIYOSIY TAVSIFLASH

Axmadova Maftuna Amin qizi

Buxoro Davlat Tibbiyot Instituti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.22723262>

Qabul qilindi: 4-sentabr 2026-yil • Ma'qullandi: 11-sentabr 2026-yil • Nashr qilindi: 12-sentabr 2026-yil

Dolzarbliqi.

Jahon mamlakatlari orasida so'nggi paytlarda sut bezi saratoni (SBS) bilan kasallanish soni oshib bormoqda, bu esa tibbiy-ijtimoiy, iqtisodiy muammolarga sabab bo'lmoqda. Ayniqsa, bu patologiyani sut bezi saratoni rivojlanishi ularni tashxislash va davolashda murakkablik vujudga keltirishi bilan alohida o'rin tutmoqda. Aniqlanishicha, «...so'nggi 20 yil davomida o'tkazilgan tadqiqotlar natijasida bemorlarda sut bezi saratoni kasallikligi 42% gacha, turli sut bezi kasalliklar bilan birga kelishi esa 80% gacha kuzatilishi qayd etilgan...»¹. Shu bilan birga sut bezi saratoni barcha iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda ayollar orasida onkologik kasalliklar orasida yetakchi o'rinda turadi. Butun dunyo ayollarida xavfli o'smalar orasida sut bezi saratoni bilan kasallanish birinchi o'rinni egallab kelmoqda. Iqtisodiy nuqtai nazardan olib qaraganda SBS erta aniqlangan bemorlarni davolash ancha manfaatli: SBS ning III- bosqichidagi bemorlarni davolash, I bosqichidagilarni davolashga nisbatan 15-30 barobarga qimmatroqdir, shu bilan birgalikda mablag'larning faqat 5% tashxisotga, 95% - esa bemorlarni davolashga sarf qilinadi. SBS boshlang'ich bosqichida 40-49 yoshli ayollarda 17% ga, 50 yoshdan oshganlarda esa 30% gacha o'lim ko'rsatkichlarining kamayganligi aniqlangan. O'smaning diametri 1 sm 3 gacha bo'lganda va limfatik tugunlar shikastlanmaganda, davolash qimmat turuvchi ximioterapevtik komponentlarsiz, a'zoni saqlab qoluvchi operatsiyalar bilan chegaralanishi mumkin.

Material va metodlar. Tadqiqotni olib borishda belgilangan vazifalarga bog'liq ravishda usullar kompleksidan foydalanildi: nur tashxis usullari, morfologik va statistik usullar.

Tadqiqot sut bezi saratoniga shubha qilingan 120 nafar ayolning klinik va instrumental tekshiruvini o'z ichiga olgan. Bemorlarning yoshi 40 yoshdan 72 yoshgacha bo'lib, o'rtacha yosh $40,0 \pm 3$ yoshni tashkil etdi. Tekshiruv natijalariga ko'ra, 65 nafar ayolda sut bezi xavfsiz o'smalari, 55 nafarida esa sut bezi saratoni tashxisi qo'yilgan (jadval 1).

1-jadval.

Tekshirilgan ayollarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanishi

Yosh (yillar)	Sut bezi xavfli hosilalari (n=55)		Sut bezi xavfsiz hosilalari (n=65)	
	abs.	%	abs.	%
40-50	29	52.7	31	47.8
51-60	17	30.9	22	33.8
61-70	9	16.4	11	16.9
71 va undan ortiq	0	0	1	1.5
Ja'mi	55	100.0	65	100.0

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, SBS bilan og'rigan bemorlar orasida 40 yoshdan 50 yoshgacha bo'lgan ayollar ustunlik qiladi. Xavfsiz o'smalari orasida sut bezi fibroadenomasi bilan 42 nafar, mahalliy fibroz bilan 10 nafar, fibrolipoma bilan 5 nafar va filloid o'sma bilan 8 nafar bemor bor.

Tadqiqot natijalari. SBSning muhim va o'ziga xos mammografik ko'rinishi chiziqli, ignasimon va pleomorf mikrokalsinatlarining to'planishida edi. O'sma jarayonida aniqlangan mikrokalsinatlardan 6 holatda: mayda pleomorf va chiziqli mikrokalsinatlar ustunlik qildi. SBSning 3 (4,3%) holatida amorf kalsinatlar qayd etilgan. Ammo mikrokalsinatlarining ushbu turi mahalliy fibrozda ham kuzatildi (n=3). Kuzatishlarimizdan ko'rinib turibdiki, sut bezi saratonining mammografik belgilarini talqin qilishda biroz qiyinchilik mavjud va bir qator hollarda soxta ijobiy yoki soxta salbiy natijalar yuzaga kelishi mumkin. Ayniqsa, bu SBSning rentgenologik belgilari sut bezlarining xavfsiz o'smalari xususiyatlariga mos kelmagan hollarda qayd etiladi. Qizig'i shundaki, bizning kuzatuvlarimiz shuni ko'rsatadiki, SBS belgilari sifatida talqin qilingan shakllanishning noto'g'ri shakli, tugun konturlarining noaniqligi va notekisligi bir qator hollarda fibroz, fibrolipoma va fibroadenoma kabi xavfsiz o'smalar bo'lib chiqdi. Bu ba'zi xavfsiz o'smalar atipik yoki bir xil bo'lmagan xususiyatlarga ega bo'lishi mumkinligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin, bu esa mammografik baholashda chalg'itishi mumkin. Mammografik belgilarni o'rganish va ularning patomorfologik ma'lumotlar bilan o'zaro bog'liqligi SBSni tashxislash va ushbu usulning aniqligini oshirishning muhim jihati hisoblanadi. Soxta ijobiy natijalar bemorlar uchun ortiqcha biopsiya va stressga olib kelishi mumkin, soxta salbiy natijalar esa SBS tashxisini erta bosqichlarda o'tkazib yuborishga olib kelishi mumkin. SBSning mammografik belgilarini yanada aniqroq talqin qilish uchun rentgenologlarni o'rganish va o'qitish ushbu usulning diagnostik samaradorligini oshirishga va noto'g'ri natijalar sonini kamaytirishga yordam beradi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Zubarev A.B., Gajonova V.Ye., Xoxlova Ye.A. Elastografiya novyy metod poiska raka razlichnykh lokalizatsiy. // Radiologiya-praktika 2008; 6:6-18.
2. Zikin B.I., Postnova N.A., Medvedev M.Ye. Elastografiya: anatomiya metoda // Peremena diagnostika, peremena terapiya. -2012. - No2-3. - S.107-113.
3. Ivanova L.I. Voprosnosti kompleksnogo ultratovushnogo issledovaniya v differentsialnoy luchevoiy diagnostike obrazovaniy molochnoy jelezi. Diss... qand.med.nauk. 14.00.19. M., 2006. - 197 b.
4. Kabin Yu.V. Novie texnologii ultratovushnogo issledovaniya v diagnostike raka molochnoy i shitovidnoy jelez // Diss.... kand.med.nauk. 14.01.13. - M.,- 2013. - 121
5. Kaprin, A.D. Dobrokachestvennie zabolevaniya molochnoy jelezi / A.D. Kaprin, N.I. Rojkova; M.: GEOTAR-Media, 2018. - 272b.
6. Karpova M.S. Algoritm luchevoiy diagnostiki raka molochnoy jelezi u jenshin s nasledstvennoy sklonnostyu // Diss... qand.med.nauk.: 14.01.12.- M.,- 2015. - 132 b.